



SO'NGGI XORAZMSHOHLAR HUKMDORLARI DIPLOMATIK MUNOSABATLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Nurullayeva Kuvonch Xudayberdiyeva

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559518>

ARTICLE INFO

Received: 12th January 2023

Accepted: 22th January 2023

Online: 23th January 2023

KEY WORDS

Jaloladdin Manguberdi,
Chingizxon, Turkon xotun, elchi
atamasi, elchilik aloqalari.

ABSTRACT

Maqolada XIII asrning buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatining elchilik aloqalari, sulola vakillarining tashqi sohadagi faoliyati va yurishlari haqida ba'zi mulohazalar berilgan.

O'z davrining buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Xorazmshoh – Anushteginiylar davlatining elchilik aloqalari tarixi yozma manbalarda yetarlicha yoritilgan bo'lsada, Xorazm davlatchiligi tarixining eng kam o'rganilgan sahifalaridan biri bo'lib, bu mavzuga bag'ishlangan alohida maxsus tadqiqotlar yo'q. Jumladan, Xorazmshoh – Anushteginiylar davlati tarixiga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlarda sulola vakillarining tashqi siyosat sohasidagi faoliyati faqat davlat mustaqilligi uchun va qolaversa tashqi bosqinchilik urushlari doirasidagina yoritilgan bo'lib, diplomatik munosabatlarning asl mazmuni diplomatiya nuqtai – nazaridan baho berilmagan. Ayniqsa, mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmshoh Muhammadning dastlab Chingizxon davlati bilan diplomatik munosabatlari, keyinchalik esa dushmanga qarshi qo'llagan harbiy-strategik rejasi umuman xato siyosat bo'lgani haqidagi qarashlar haligacha hukmron bo'lib, bu masala chuqur ilmiy tahlil qilinmagan. Umuman bu borada tan olish kerakki, hozirgacha tarix fanida mazkur masala bo'yicha mashhur rus sharqshunos olimi V.V. Bartoldning qarashlari hukmron bo'lib, tadqiqotchi, Chingizxonning o'z davrining eng mohir diplomati, Muhammad Xorazmshoh yoki Jaloliddin Manguberdilarning esa noshud siyosatchi bo'lganligi borasidagi fikrlari doirasidan haligacha chiqib ketilmagan. Shu jihatdan olganda mazkur maqolada, Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasi hukmdorlari, ayniqsa Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin Manguberdining olib borgan diplomatik munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilingan.

Ta'kidlash joizki, Xitoyni zabt etgan Chingizxon ushbu istilo bilan kifoyalaniq qolmasligi aniq bo'lgan. Movarounnahrning badavlat savdo ahli, o'lkaniq behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy binolar, qolaversa qadimiy yurtimizning boyliklari mo'g'ullarni anchadan beri o'ziga jalb qilayotganligi ma'lum edi. Musulmon mamlakatlarining behisob boyliklari to'g'risidagi afsonalarni eshitib, tekin o'ljaga va boylikka erishish istagida bo'lgan mo'g'ul harbiy zodagonlari Chingizxon davlati g'arbda Qipchoq cho'llari, Qoraxitoylarning ko'chmanchi G'arbiy Lyao (Si Lyao) davlatlarini bo'sundirgach uning davlati Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi.



Shubhasiz, uning g'arbdagi eng yirik va kuchli qo'shnisi hamda raqibi buyuk Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati hisoblanar edi.

Xorazmshohlar davlatining qudrati sultonlar Takash(1172-1200) va Muhammad(1200-1220) davrida gullab-yashnadi. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati, Hindistondan to Onado'ligacha bo'lgan ulkan hududni egallagan bo'lib, bu davrda u eng yirik musulmon davlatlaridan biri edi. Uning poytaxti Gurganj (Urganch) shahri bo'lgan. Ammo, 1220-yilga kelib, Xorazmshohlar davlati Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari hujumiga dosh berolmay yengiladi. So'nggi Xorazmshoh Jaloladin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi kuchli qarshilik ko'rsatgan va bir qator janglarda mo'g'ul askarlarini yakson qilishga ham erishgan. Mo'g'ullar qo'lga kiritgan ulkan hudud bo'lib olinganidan so'ng, Xorazm Oltin O'rdadagi Jo'chi ulusining tarkibiga kirgan¹.

Sarhadlarimizda vujudga kelgan va faoliyat ko'rsatgan davlatlar hukmdorlari tomonidan amalga oshirilib kelingan diplomatik munosabatlar qadim zamonlardan boshlaboq "elchilik aloqalari" deb yuritib kelingan. Bu tushuncha uzoq o'tmishga egadir. O'zbek elchilik munosabatlarining ma'naviy asoslari haqida gap ketar ekan, uning dastlabki ildizlarini Movarounnahr davlatchiligining ilk yozma manbasi "Avesto"dan qidirish lozim bo'ladi. Bundan uch ming yil ilgari Amu va Sir daryolari havzasida vujudga kelgan va yuksak sug'orma dehqonchilikka asoslangan qadimgi turkiy sivilizatsiyasidan mujda beruvchi ushbu muqaddas kitobda boshqa ellar bilan muloqot masalalarining asl ma'naviy mohiyatlari-erk, o'zaro tenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlarga taalluqli tushunchalar o'z ifodasini topgan. Masalan, Zardusht xat(noma)laridan iborat "Avesto"ning ikkinchi kitobi-"Yosin"ning 14-bashoratida xudo "Men ezgu fikr(niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman", deydi. "Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqlarda shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtda to'lash, aldanchilik va xiyonatdan holi bo'lish" iymonlilikning ko'rinishlari sifatida talqin etiladi.² Qadimiy turkiy atamalarni sinchkovlik bilan to'plab, ular yuzasidan keng ko'lamli izlanishlar olib borgan taniqli turkshunos-lug'atshunos L.Z.Budagovning ta'kidlashicha, "elchi" atamasi aslida "el", ya'ni xalq, qabila, jamoa so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda L.Z.Budagov "elchi" atamasi turkiy davlatlarning o'zaro munosabatlarida qadimdan qo'llanilib kelingan "yalavach" atamasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligiga e'tiborni tortadi. Bunda u mazkur iboraning "elchi" ma'nosida ishlatilib kelinganligini isboti uchun "Muhammad payg'ambar Xudoning yalavachi", degan kalimani keltiradi³. Ammo "yalavach" so'zining "elchi" ma'nosida o'z vaqtida keng qo'llanilgani tarixdan ma'lum. Buning uchun Xorazmshohlar-anushteginlar (1097-1231) davrida faoliyat ko'rsatgan elchilarning "yalavach" deb atalganini, mo'g'ullar istilosi arafasida va undan keyingi siyosiy voqealarda muhim o'rin tutgan Mahmud Yalavach⁴ faoliyatini eslatib o'tish kifoya qiladi. Diplomatiyaga oid masalalar saljuqiylar imperiyasidan ajralib chiqqan Xorazmshohlar-anushteginlar saltanatiga bag'ishlangan qator tarixiy manbalarda ham u yoki bu tarzda o'z ifodasini topgan. Masalan, shunday asarlardan biri-Shihobiddin Muhammad an-

¹ Edvard Rtveldadze O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. "San'at jurnali" nashriyoti, Toshkent.2009,31-bet

² Ibrohim Karimov.Zardushtiylik haqida haqiqat."Muloqot",1992.26-27-betlar

³ Budagov I.Z. Sravnitelniy slovar turetsko-tatariskix narechiy, tom 1, SPb, 1869, 206-bet

⁴ Abbos Iqbol.Tarixi mo'g'ul az hamle-ye to tashkil doulate Temuri. Tehron, 1945, 22-23-betlar. Muallif Mahmud Yalavoch bilan bog'liq voqealarni bayon etar ekan, "Yalavoch" so'zining turkiy kalima ekanligini tasdiqlaydi va uning ma'nosini forscha "feristande"- "yuborilgan" ya'ni "elchi" sifatida ishlatiganini aytadi.



Nasaviyning “Sulton Jaloladdin Manguberdining hayoti”⁵ kitobida bir qancha ibratli lavhalar keltirilganki, ular XIII asrning birinchi yarmidagi g’oyat murakkab tarixiy sharoitlarda diplomatiyamiz tarixida namoyon bo’lgan nodir va ibratli voqeliklar haqida tasavvur beradi. Mo’g’ullar istilosi tufayli tarix sahnasining so’nggi sultoni Jaloladdin Manguberdining kotibi tomonidan bitilgan ushbu kitobda umuman Markaziy Osiyodagi o’sha davr davlatlararo munosabatlarining ko’pgina qirralari g’oyat katta mohirlik bilan tasvirlangan. Sulton Muhammad Xorazmshoh Markaziy Osiyoda harbiy jihatdan katta zafarlarga erishgach, Xitoyni ham zabt etish maqsadida ancha-muncha tayyorgarchilik ko’ra boshlagan. Ammo tezda u sharqda Chingizxon rahnamoligida paydo bo’lgan ulkan kuch-mo’g’ullarning qator zafarlari haqida xabarlar eshita boshlaydi. Bunday bir sharoitda Sulton Muhammad ana shu xabarlarni tekshirib ko’rish, sharqqa g’ulg’ula solayotgan mo’g’ul qudrati haqida aniq ma’lumotga ega bo’lish maqsadida elchilik jo’natadi. Chingizxon o’z huzuriga kelgan Xorazm elchilarini yaxshi kutib oladi. U elchilarga katta izzat-ikrom ko’rsatib, ikki mamlakat o’rtasida do’stona munosabatlar va tijorat ishlarini yo’lga qo’yish niyatida Xorazmshohga katta sovg’a-salomlar yuboradi. Chingizxon bu paytga kelib o’zidan g’arbda joylashgan kuchli va yirik davlat-Xorazmshohlar imperiyasini yaqindan o’rganish, o’sha yerlik zukko shaxslarning o’z xizmatida bo’lishini ta’minlash, o’zaro muloqotlarda ulardan faol foydalanish siyosatini qattiq yo’lga qo’ygan. Bu esa mo’ljallangan va ma’lum maqsadlar sari yo’naltirilgan davlat siyosatining bir ko’rinishi edi, albatta. Xorazmshoh sharqda paydo bo’lgan bu qudratli davlatni yaxshi bilmas, Bag’dod bilan munosabatlarning keskinlashgan bir vaqtda u bilan dushmanlik yo’liga kirishni ma’qul topmasdi. Xullas, muzokaralar asnosida Xorazmshohning maktub mazmunidan bo’lgan noroziligi asta-sekin so’nib, tomonlar ikki o’rtada Chingizxon taklif etgan do’stlik shartnomasini tuzishga erishadilar. Bu shartnomaga muvofiq taraflar bir-birlarining do’stini do’st, dushmanini esa dushman deb bilish majburiyatini oladi.

Bu yerda shuni alohida ta’kidlash joizki, Chingizxon nomidan ushbu shartnomani qabul qilib olgan kishining nomi Mahmud bo’lib, unga Yalavoch degan laqab berilgan edi. Bu atama turkiyda yuborilgan, vakil, elchi ma’nosini bildiradi. Bu shartnoma Chingizxon uchun ma’lum darajada o’z harbiy yurishlarini bemalol tayyorlash hamda qulay sharoit paydo bo’lishini kutish yo’lida muhim diplomatik qadam bo’lgandi. Ayni vaqtda u Xorazmshohlar va mo’g’ullar o’rtasidagi siyosiy va tijorat masalalarini qonun sifatida mustahkamlab, qadimiy ipak yo’lining qayta tiklanishiga ham katta ma’naviy –huquqiy asos yaratgan edi. Ammo voqealarning keyingi rivoji undan tinch munosabatlarni taraqqiy ettirib borish yo’lida foydalanish imkonini cheklab qo’ydi. Bu orada Xorazm va mo’g’ul davlati o’rtasida shartnoma imzolanganidan so’ng mo’g’ul savdogarlaridan katta bir guruhi ko’p sonli karvon bilan Movarounnahr tomon yo’l olib, son-sanoqsiz tuyalarga tillo idish va buyumlar, qimmatbaho gazlamalar, mushk-anbar hamda boshqa mollar ortib, Xorazmshohlar sarhadida joylashgan O’tror shahriga kirib keladilar. Bu yerda Xorazmshohning onasi-Turkon Xotunning jiyani, ya’ni akasining o’g’li G’oyirxon nomi bilan mashhur bo’lgan Oynalchiq hokim edi. Ba’zi manbalarning shohidlik berishicha, karvondagi mo’g’ul savdogarlar Chingizxon urug’idan bo’lib, ayrimlari xoqonga yaqin qarindosh ham bo’lgan. Ularni josus sifatida qatl etish va mol-mulklarini musodara qilish uchun G’oyirxon sulton Muhammad Xorazmshohdan izn so’rab,

⁵ An-Nasaviy. Sulton Jaloladdin Manguberdining hayoti. Boqu,1973



chopar yo'llaydi. Bu voqea Chingizxonning haddan ziyod g'azabiga sabab bo'ladi. Albatta, karvon bilan O'trorga kelgan savdogarlarning ma'lum qismi josuslik bilan shug'ullanganiga shubha bo'lishi mumkin emas, bunday hol Xorazm tomonidan mo'g'ul yurtiga yuborilgan savdo karvonlarida ham bo'lganligi tabiiy. Har ikkala tomon ham shartnoma bo'lishiga qaramay, bir-birlarining harbiy tayyorgarliklari, kelajak rejalari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lib borishga harakat qilgan. Ammo G'oyirxonning bu masalada haddan tashqari ehtiyotsizlik va oshkora haqoratimiz ish ko'rishi Chingizxon uchun katta bahona vazifasini bajargan edi. Bu voqeadan so'ng ham bir necha marta har ikkala tomon bir-birlariga elchilar yo'lladilar. Ammo ular bajargan vazifa tinchlikni mustahkamlash emas, aksincha, urush dahshatini yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Chunki har ikkala tomon ham ayovsiz kurashga bel bog'lagan va unga jon-jahdi bilan hozirlik ko'rar edi. Buyuk Xorazm davlati tarixida so'nggi shoh Jaloladdin imperiyani saqlab qolish uchun olib borgan mardonovor kurashining o'n yillik jangnomasi bu shiddatli davrning eng fojiali va ulug'vor sahifalaridan biri. O'z vaqtida Turkon xotun tomonidan tan olinmagan jasur, iste'dodli Jaloladdin otasi o'rniga malikaning irodasi bilan taxtga o'tkazilgan ukasi Qutbiddin O'zlog' shoh boshchiligida saroy atrofida to'plangan noshud to'dalarning fitnalariga qaramay, mo'g'ularning munosib raqibi bo'lib chiqdi. U o'ziga qarashli G'azna viloyatini istilochilarga qarshilik ko'rsatish markaziga aylantirgan edi. Jaloladdin fitnaning uyasiga aylangan poytaxtni tashlab bu yerga qochib kelishga majbur bo'lgan. U qarindosh-urug'lari tomonidan uyushtirilgan suiqasdga qaramay, hatto dushmanlari tan bergan bu qahramonning shon-shuhrati keng tarqalgan. Jaloladdin musulmon davlatlarining madaniyatini vahshiy majusiylardan himoya qiluvchi bir qalqon bo'lib xizmat qilgan.

O'sha davrda yaratilgan barcha yozma manbalarda Jaloladdin Manguberdining mardligi, jasoratlari haqida yozib qoldirilgan. Chingizxonning bosqini 100 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyoda hukmron bo'lib kelgan Xorazmshohlar davlatining tanazzuli va tarix sahnasidan ketishiga sabab bo'ldi. Nainki Jaloladinning balki o'nlab xalqlarning taqdirini belgilab bergan bu yo'qotishning sababi esa bag'oyat ayanchli, ammo saboq bo'larli, kerak paytda turkiy xalqlarning birlasha olmasligi, shaxsiy manfaatni umum manfaatdan ustun qo'yish, parokandalik uzoq va yaqin tariximizning asosiy va achchiq saboqlaridan biri bo'ldi. Jaloladdin kuchli va mustahkam davlat barpo etish, unga tayangan holda mo'g'ullar bilan kurashni davom ettirish umidida edi, ammo bu umid puchga chiqdi. Jaloladdin Manguberdining jo'shqin, mazmunli hayoti va faoliyatida intilishga loyiq namuna, ayni paytda hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan ulkan saboq bor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatchilik tariximizda voqealar rivoji bir zaylda davom etmagan, unda ba'zan keng qamrovli imkoniyatlar davri hukm surgan bo'lsa, ayrim zamonlarda tanazzul hamda cheklangan voqeliklar davrlari ham namoyon bo'lgan. Ammo, shunga qaramasdan, davlatchiligimiz tarixida yuz bergan barcha holatlarda diplomatiyamiz tarixan tarkib topgan o'z tamoyillariga amal qilib kelgan, unda mustaqillik g'oyasiga sodiqlik, tinchlik va osoyishtalikka intilish, uni asrash, qo'shni davlatlar va xalqlar bilan yaxshi munosabatlarni joriy etish, savdo-sotiqni rivojlantirish, boshqa xalqlarga hurmat bilan qarash, vatanni sevish, adolat nuqtayi nazaridan ish ko'rish kabi qirralar hamisha namoyon bo'lib kelgan.



References:

1. An-Nasaviy. Sulton Jaloladdin Manguberding hayoti. Boqu,1973
2. Abbas Iqbol.Tarixi mo'g'ul az hamle-ye to tashkil doulate Temuri. Tehron, 1945, 22-23-betlar
3. Budagov I.Z. Sravnitelniy slovar turetsko-tatariskix narechiy, tom 1, SPb, 1869, 206-bet
4. Edvard Rtveladze O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. "San'at jurnali" nashriyoti,Toshkent.2009,31-bet
5. Ibrohim Karimov.Zardushtiylik haqida haqiqat."Muloqot",1992.26-27-betlar